



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



### BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023-yil 1-avgust holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 30 165 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 26 640 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining pasayishi 6,6 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 7,4 foiz) tashkil etdi.

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylar ma’lumotlar  
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda.***




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar**  
*2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda*


Yillar kesimida soni

2023	3 710
2022	2 793
2021	3 501
2020	3 121
2019	4 276

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**



2023- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 908 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 680 taga, oilaviy korxonalar 226 taga ko'paygan.

**Hududlar kesimida**

Buxoro sh.	718	9,0 %	Buxoro t.	204	9,3 %
Qorako'l t.	348	21,4 %	Kogon sh.	181	15,5 %
Romitan t.	368	13,4 %	Olot t.	180	16,7 %
Kogon t.	311	17,4 %	Shofirkon t.	189	10,4 %
G'ijduvon t.	367	12,0 %	Peshku t.	211	12,2 %
Jondor t.	282	11,8 %	Qorovulbozor t.	85	11,6 %
Vobkent t.	266	14,7 %			

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

## Yillar kesimida soni

2023		30 165
2022		32 311
2021		30 089
2020		25 694
2019		21 884



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar


2023- yil 1- avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga (32 311ta) nisbatan 2 146 taga pasayganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli pasayish bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 278 tadan 9 068 taga (pasayish 210 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3 368 tadan 2 917 taga (451 taga kamaygan), sanoat – 4 916 tadan 4 131 taga (785 taga kamaygan).

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	8 015	Vobkent t.	1 811
G'ijduvon t.	3 066	Peshku t.	1 725
Romitan t.	2 756	Qorako'l t.	1 627
Jondor t.	2 394	Kogon sh.	1 169
Buxoro t.	2 182	Olot t.	1 081
Shofirkon t.	1 821	Qorovulbozor t.	731
Kogon t.	1 787		

*2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda*


### Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2023-yil yanvar-iyul oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 619 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 613 ta;
- yirik korxonalar 6 ta.

### Hududlar kesimida


Buxoro sh.	<b>682</b>	<b>9,6 %</b>	Buxoro t.	<b>194</b>	<b>9,9 %</b>
Qorako‘l t.	<b>342</b>	<b>24,9 %</b>	Kogon sh.	<b>177</b>	<b>17,1 %</b>
Romitan t.	<b>365</b>	<b>14,4 %</b>	Olot t.	<b>177</b>	<b>19,3 %</b>
Kogon t.	<b>307</b>	<b>18,6 %</b>	Peshku t.	<b>207</b>	<b>13,7 %</b>
G‘ijduvon t.	<b>361</b>	<b>13,2 %</b>	Shofirkon t.	<b>181</b>	<b>11,5 %</b>
Jondor t.	<b>280</b>	<b>13,0 %</b>	Qorovulbozor t.	<b>84</b>	<b>12,9 %</b>
Vobkent t.	<b>262</b>	<b>16,3 %</b>			

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

Yillar kesimida soni

<b>2023</b>	<b>26 801</b>
<b>2022</b>	<b>28 899</b>
<b>2021</b>	<b>26 762</b>
<b>2020</b>	<b>22 461</b>
<b>2019</b>	<b>18 589</b>



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- avgust holatiga 26 801 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 144,1 foizni tashkil etdi (8 212 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 33,8 foiz, sanoat – 15,4 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 10,7 foiz, qurilish – 9,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 8,0 foiz, tashish va saqlash – 8,7 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,6 foiz, boshqa turlari – 9,8 foiz.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	<b>7 091</b>	Shofirkon t.	<b>1 575</b>
G‘ijduvon t.	<b>2 736</b>	Peshku t.	<b>1 511</b>
Romitan t.	<b>2 536</b>	Qorako‘l t.	<b>1 376</b>
Jondor t.	<b>2 160</b>	Kogon sh.	<b>1 038</b>
Buxoro t.	<b>1 951</b>	Olot t.	<b>919</b>
Kogon t.	<b>1 651</b>	Qorovulbozor t.	<b>650</b>
Vobkent t.	<b>1 607</b>		

*2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni

<b>2023</b>		<b>3 613</b>
<b>2022</b>		<b>2 692</b>
<b>2021</b>		<b>3 413</b>
<b>2020</b>		<b>3 046</b>
<b>2019</b>		<b>4 123</b>

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-iyul oylarida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 41 tadan 86 taga (o‘sish 45 taga), savdo – 850 tadan 1 239 taga (o‘sish 389 taga) ko‘paydi.

### Hududlar kesimida


Buxoro sh.	<b>681</b>	<b>9,7 %</b>	Buxoro t.	<b>194</b>	<b>10,0 %</b>
Qorako‘l t.	<b>342</b>	<b>25,0 %</b>	Kogon sh.	<b>176</b>	<b>17,2 %</b>
Romitan t.	<b>365</b>	<b>14,4 %</b>	Olot t.	<b>175</b>	<b>19,1 %</b>
Kogon t.	<b>307</b>	<b>18,7 %</b>	Peshku t.	<b>207</b>	<b>13,7 %</b>
G‘ijduvon t.	<b>361</b>	<b>13,3 %</b>	Shofirkon t.	<b>179</b>	<b>11,4 %</b>
Jondor t.	<b>280</b>	<b>13,0 %</b>	Qorovulbozor t.	<b>84</b>	<b>13,1 %</b>
Vobkent t.	<b>262</b>	<b>16,4 %</b>			

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

Yillar kesimida soni

<b>2023</b>		<b>26 640</b>
<b>2022</b>		<b>28 755</b>
<b>2021</b>		<b>26 619</b>
<b>2020</b>		<b>22 300</b>
<b>2019</b>		<b>18 459</b>



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (26,4 foiz), G‘ijduvon (10,2 foiz), Romitan (9,5 foiz), Buxoro (7,3 foiz) va Jondor (8,1 foiz) viloyatlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 76,0 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


**Hududlar kesimida**

Buxoro sh.	<b>7 032</b>	Shofirkon t.	<b>1 567</b>
G‘ijduvon t.	<b>2 721</b>	Peshku t.	<b>1 506</b>
Romitan t.	<b>2 528</b>	Qorako‘l t.	<b>1 367</b>
Jondor t.	<b>2 157</b>	Kogon sh.	<b>1 026</b>
Buxoro t.	<b>1 945</b>	Olot t.	<b>914</b>
Kogon t.	<b>1 639</b>	Qorovulbozor t.	<b>640</b>
Vobkent t.	<b>1 598</b>		

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar  
2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda**

### **Hududlar kesimida**


Romitan t.	<b>540</b>
Kogon t	<b>311</b>
Jondor t.	<b>311</b>
Buxoro t.	<b>236</b>
G'ijduvon t.	<b>235</b>
Qorovulbozor t	<b>211</b>
Vobkent t.	<b>199</b>
Buxoro sh.	<b>176</b>
Shofirkon t.	<b>191</b>
Qorako'l t	<b>180</b>
Peshku t.	<b>192</b>
Olot t.	<b>88</b>
Kogon sh.	<b>47</b>



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

### Baliq ovlash va akvakultura




**O'rmonchilik va yog'och  
tayyorlash**

**Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik va  
bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish**

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda


### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>928</b>
G‘ijduvon t.	<b>477</b>
Kogon t.	<b>372</b>
Romitan t.	<b>349</b>
Jondor t.	<b>335</b>
Buxoro t	<b>301</b>
Vobkent t.	<b>277</b>
Shofirkon t.	<b>232</b>
Qorako‘l t.	<b>214</b>
Peshku t.	<b>193</b>
Kogon sh.	<b>177</b>
Olot t.	<b>162</b>
Qorovulbozor t.	<b>114</b>



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 13,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 83,9 foiz), 3,1 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (kamayish 16,7 foiz), 2,3 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (kamayish 9,6 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (kamayish 5,6 foizni) tashkil etgan.



2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>812</b>
Romitan t.	<b>247</b>
Shofirkon t.	<b>226</b>
Jondor t.	<b>209</b>
Buxoro t.	<b>180</b>
Peshku t.	<b>163</b>
G‘ijduvon t.	<b>145</b>
Kogon t.	<b>144</b>
Vobkent t.	<b>118</b>
Kogon sh.	<b>109</b>
Qorako‘l t.	<b>113</b>
Olot t.	<b>76</b>
Qorovulbozor t.	<b>57</b>



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,7 foiz ulushni tashkil etib, pasayish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 81,3 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 129,1 foizga o’sgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 27,1 foiz ulushni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 85,4 foizni tashkil etdi.

**448**


Fuqarolik  
obyektlarini qurish

**704**

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

**1 447**


Bino va  
inshootlar qurish



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>2 277</b>
G'ijduvon t.	<b>1 095</b>
Romitan t.	<b>754</b>
Buxoro t.	<b>682</b>
Jondor t.	<b>635</b>
Qorako'l t.	<b>584</b>
Shofirkon t.	<b>559</b>
Vobkent t.	<b>531</b>
Peshku t.	<b>527</b>
Kogon t.	<b>476</b>
Olot t.	<b>403</b>
Kogon sh.	<b>377</b>
Qorovulbozor t.	<b>168</b>



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 043 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,5 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda pasayish sur'ati 93,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,2 foiz ulushni tashkil etib, pasayish sur'ati 103,5 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash yo'nalishida 11,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 108,2 foizni tashkil etdi.

**1 005**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash

**2 400**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**5 663**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>844</b>
G‘ijduvon t.	<b>223</b>
Romitan t.	<b>150</b>
Jondor t.	<b>127</b>
Vobkent t.	<b>127</b>
Qorako‘l t.	<b>104</b>
Buxoro t.	<b>107</b>
Olot t.	<b>96</b>
Kogon sh.	<b>85</b>
Kogon t.	<b>86</b>
Shofirkon t.	<b>82</b>
Peshku t.	<b>76</b>
Qorovulbozor t.	<b>46</b>



2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish surʼati 2019- yilning mos davriga nisbatan 135,6 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-avgust holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 17,1 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 82,9 foiz ulushini tashkil etdi.

**368**

Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 785**


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Buxoro sh.	<b>163</b>
Kogon sh.	<b>25</b>
Vobkent t.	<b>24</b>
Jondor t.	<b>20</b>
Peshku t.	<b>17</b>
Romitan t.	<b>17</b>
Kogon t.	<b>19</b>
Shofirkon t.	<b>13</b>
G'ijduvon t.	<b>12</b>
Qorako'l t	<b>8</b>
Buxoro t.	<b>12</b>
Qorovulbozor t.	<b>6</b>
Olot t.	<b>3</b>



2023- yil 1-avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 18,6 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,8 foizga oshdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 22,4 foizini tashkil etib, pasayish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,2 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 57,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 101,0 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>349</b>
Buxoro t.	<b>68</b>
G'ijduvon t.	<b>72</b>
Jondor t.	<b>46</b>
Kogon sh.	<b>42</b>
Shofirkon t.	<b>39</b>
Romitan t.	<b>34</b>
Peshku t.	<b>29</b>
Vobkent t.	<b>29</b>
Qorako'l t.	<b>26</b>
Kogon t.	<b>22</b>
Olot t.	<b>9</b>
Qorovulbozor t.	<b>7</b>




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 694 ta yoki 89,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

96,0 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, pasayish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,6 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 87,0 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,4 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 84,6 foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>537</b>
Jondor t.	<b>338</b>
G‘ijduvon t.	<b>306</b>
Romitan t.	<b>294</b>
Vobkent t.	<b>201</b>
Buxoro t.	<b>163</b>
Kogon t.	<b>114</b>
Shofirkon t.	<b>123</b>
Peshku t.	<b>115</b>
Kogon sh.	<b>60</b>
Qorako‘l t.	<b>33</b>
Olot t.	<b>28</b>
Qorovulbozor t.	<b>19</b>



2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 7,7 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o’sish sur’ati 119,9 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o’sish sur’ati 97,5 foizni; pochta va kuryerlik yo‘nalishi 109,0 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 66,7 foizni tashkil etdi.




**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy**

**shakli bo'yicha umumiy ma'lumot**

*2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda*

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




**Mas’uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lavgustdilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zлari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	615	11,0 %	Peshku t.	199	15,6 %
Romitan t.	351	15,1 %	Shofirkon t.	169	13,5 %
Jondor t.	274	14,3 %	Qorako‘l t.	133	18,1 %
Kogon t.	261	20,6 %	Kogon sh.	87	13,8 %
G‘ijduvon t.	277	13,6 %	Qorovulbozor t.	81	14,0 %
Vobkent t.	228	20,0 %	Olot t.	80	19,4 %
Buxoro t.	171	11,9 %			

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 26 801 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 20 612 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 32,7 foiz, sanoat – 14,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 12,0 foiz, qurilishda – 11,4 foizni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida


Buxoro sh.	<b>5 596</b>	Shofirkon t.	<b>1 250</b>
Romitan t.	<b>2 317</b>	Vobkent t.	<b>1 148</b>
G'ijduvon t.	<b>2 036</b>	Qorako'l t.	<b>735</b>
Jondor t.	<b>1 922</b>	Kogon sh.	<b>629</b>
Buxoro t.	<b>1 438</b>	Qorovulbozor t.	<b>580</b>
Kogon t.	<b>1 269</b>	Olot t.	<b>413</b>
Peshku t.	<b>1 279</b>		

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2023- yil yanvar-iyul oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 49 taga, sanoat sohasida 34 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

Qorako‘l t.	145	Buxoro t.	11
Kogon sh.	54	G‘ijduvon t.	7
Buxoro sh.	30	Jondor t.	3
Kogon t.	28	Shofirkon t.	1
Olot t.	35	Vobkent t.	2

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1-avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 78,6 foizni tashkil etadi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (75,1 foiz), axborot va aloqa (80,0 foiz), qurilish sohalari (71,7 foiz), tumanlar kesimida esa – G'ijduvon (67,0 foiz), Buxoro shahar (70,4 foiz), Qorovulbozor (73,3 foiz) va Shofirkon (72,6 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

### Hududlar kesimida


Buxoro sh.	790	Vobkent t.	116
Qorako'l t.	394	Jondor t.	110
Olot t.	319	Shofirkon t.	98
Buxoro t.	296	Romitan t.	92
G'ijduvon t.	234	Peshku t.	84
Kogon t.	218	Qorovulbozor t.	22
Kogon sh.	191		

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

Qorako‘l t.	64	Buxoro t.	11
Olot t.	59	Shofirkon t.	10
Kogon sh.	36	Romitan t.	11
G‘ijduvon t.	77	Jondor t.	3
Buxoro sh.	34	Peshku t.	7
Vobkent t.	32	Qorovulbozor t.	2
Kogon t.	16		

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 408 taga kamaygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 941 tadan 969 taga (o’sish 28 ta), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 828 tadan 739 taga (kamayish 89 ta), sanoatda – 881 tadan 699 taga (kamayish 182 ta) sonining sezilarli kamayishi bilan izohlanadi.

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	596	Olot t.	180
G‘ijduvon t.	455	Kogon t.	148
Vobkent t.	333	Peshku t.	135
Qorako‘l t.	229	Jondor t.	113
Kogon sh.	202	Romitan t.	107
Shofirkon t.	213	Qorovulbozor t.	35
Buxoro t.	194		

## 4- BO'LIM. XORIJIY KAPITAL ISHTIROKIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot 2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	11
Kogon sh..	1
Buxoro t.	2
Qorako'l t.	1
Vobkent t.	1

2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,6 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 47 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 15,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 14,6 foiz), Xitoy (ulushi 8,8 foiz), Turkmaniston (ulushi 9,8 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,8 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	158	Qorako'l t.	10
Buxoro t.	27	Jondor t.	6
Kogon t.	24	Shofirkon t.	7
G'ijduvon t.	13	Vobkent t.	5
Romitan t.	15	Qorovulbozor t.	4
Peshku t.	11	Olot t.	3
Kogon sh.	12		

2023- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra, birlikda

	<b>Davlatlar nomi</b>	<b>soni</b>
	<b>Afg‘oniston</b>	<b>1</b>
	<b>Xitoy</b>	<b>2</b>
	<b>Turkmaniston</b>	<b>5</b>
	<b>Yaponiya</b>	<b>1</b>
	<b>Qozog‘iston</b>	<b>1</b>
	<b>Pokiston</b>	<b>2</b>
	<b>Rossiya</b>	<b>1</b>
	<b>Birlashgan AA</b>	<b>1</b>
	<b>Boshqalar</b>	<b>2</b>

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Davlatlar nomi	soni
Rossiya	47
Turkiya	43
Turkmaniston	29
Xitoy	26
Afg‘oniston	29
Eron	21
Koreya	17
AQSh	9
Tojikiston	6
Boshqalar	68

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 164 tasi qo‘shma korxonalar, 131 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda

### xorijiy korxonalar

### qo‘shma korxonalar

83	Buxoro sh	75
7	Buxoro t	20
9	Kogon t	15
3	Kogon sh	9
4	G‘ijduvon t	9
5	Romitan t	10
1	Jondor t	5
2	Shofirkon t	5
4	Qorako‘l t	6
2	Vobkent t	3
7	Peshku t	4
2	Qorovulbozor t	2
2	Olot t	1

2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiravgustotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatavgustotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- avgust holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Buxoro viloyat statistik registrlarni  
yuritish bo‘limi  
Tel.: (65) 223-83-20